

AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Baratova Madina Xasanova

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Magistrant*

Anotatsiya: *Ushbu maqola aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini moliyalashtirishning nazariy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishi, ijtimoiy sohani moliyalashtirishning dolzarblik kasb etishi olim va mutaxassislarning sohaning turli jihatlarini inobatga olgan holda yondashuvlari atroflicha yoritilgan.*

Tayanch so'zlar: *ijtimoiy himoya, aholini farovonlogini oshirish yo'llari, ijtimoiy himoya dasturlari, aholi mehnat bozorida ishitiroki, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.*

KIRISH

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlari, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksa-qariyalar, nogironlar, vaqtincha ishsizlar va shunga o'xshash yordamga ehtiyojmand aholi vakillariga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan izohlanadi. Ko'rinib turibdiki, mamlakatdagi ijtimoiy islohotlar asosini tashkil qiluvchi aholining muayyan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimiga o'tilishi iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadlariga mos keladi.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirish, hududlarda kam ta'minlanganlikning salbiy oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatining o'sishini ta'minlashga yo'naltirilgan aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatining rolini kuchaytirish bo'yicha tegishli xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmushining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashni va davlatning kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat siyosati aholining mehnatga qobiliyatsiz tabaqalarini, obyektiv sabablarga ko'ra mehnat faoliyati yurita olmaydigan fuqarolarni, belgilangan miqdorda kam daromad oladigan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga oid tadbirlarning yaxlit, majmuiy tizimni ko'zda tutadi. Bu esa eng muhim ehtiyojlarni qondirishda ijtimoiy yordam yo'nalishi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida turli qatlamdagi aholini ijtimoiy

himoyalash muhim o'rin tutadi. Hozirgi ko'p tarmoqli iqtisodiyot va mulkchilikning turli-tumanligi sharoitida har bir jamiyat a'zosini ijtimoiy himoyalash va ularga yordam berish zaruriy holdir. Amaldagi kuchli ijtimoiy himoya o'tish davridagi qiyinchiliklarni yumshatdi, ijtimoiy maqsadga mo'ljallangan resurslar oshishi, kam ta'minlangan aholi uchun turli xil nafaqalar joriy etilishini ta'minladi. Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda ijtimoiy himoya atamasiga turlicha yondashishlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, L.S.Rjanitsina shunday deb yozadi: "Umumiy talqin qilganda ijtimoiy himoyalash orqali biz shaxsiy huquqlarni, iqtisodiy huquqlarni, mehnatga, daromadga, ijtimoiy xizmat ko'rsatishga bo'lgan huquqlarni jamiyat tomonidan kafolatlanishini tushunishimiz mumkin" [1].

Shuningdek, Y.G.Odegov, G.G.Rudenko, N.G.Mitrofanov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "Ijtimoiy himoya – bu huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy kafolatlarning butun bir tizimini tashkil etadi, mehnatga layoqatli fuqarolarga shaxsiy mehnat hissasi va tadbirkorligi hisobiga o'z turmush farovonligini oshirishni, aholining mehnatga layoqatli bo'lmagan va muhtoj qismiga davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri beriladigan moddiy yordamlar va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi" [2].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham "ijtimoiy himoya" tushunchasining mohiyatini ochib berishda turlicha ta'riflar keltiriladi. Jumladan, D.N.Rahimova "Ijtimoiy himoya tizimi – hozirgi jamiyatda barcha aholi qatlamlarini qamrab olishi kerak, u o'z faoliyatiga mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatli bo'lmagan aholini kiritishi lozim. Mehnatga layoqatli aholiga u o'z mehnat ulushi, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga, o'z turmush farovonligini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Mehnatga layoqatli bo'lgan aholiga va ijtimoiy nochor qatlamlariga maxsus yangiliklar, hamda to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan moddiy yordam, pensiya, nafaqalar, stipendiya shaklida hamda soliqlarni bir muncha pasaytirish shaklida namoyon bo'ladi", degan fikrlarni bildiradi [3].

Yana bir iqtisodchi olim A.V.Vahobovning fikricha, "Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy himoya o'zining manzilini o'zgartirmoqda, ya'ni u aholining o'zini muayyan bir sharoitda hayot kechirish uchun zarur bo'lgan ne'matlarni eng kam darajasi bilan ta'minlay olmaydigan qatlamlariga maqsadli yo'naltirilgan". Hozirgi bosqich uchun ijtimoiy himoyaga yuqorida keltirilgan ta'rif uning manzilliligini aniq aks ettiradi. Chunki hozirgi bosqichda ijtimoiy himoyaning aniq yo'naltirilganligiga, manzilliligiga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun muallif fikricha, manzilli ijtimoiy himoya deganda, muayyan vaqt oralig'ida aholining aynan muhtoj qatlamiga yo'naltirilgan ijtimoiy kafolatlarni tushunishimiz lozim [4].

N.Majidov, U.Rayxanovlar ijtimoiy sohani moliyalashtirishda ijtimoiy sug'urtaga alohida e'tibor qaratadilar. Jumladan, ijtimoiy himoya choralari iqtisodiyotning ehtiyojlariga muvofiq ishchi kuchini takror tashkil etish xususiyatini yaxshilash imkonini beradigan eng maqbul vositaga aylandi, degan xulosaga keladilar [5].

Shu bilan birga, YaIMdagi ijtimoiy xarajatlarning ulushi ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanishini hamda istalgan jamiyatda

daromadlarning taqsimlanishi qat'iy ravishda teng bo'lmashligini ta'kidlab o'tadilar. Aholi guruhlarini daromadlar bo'yicha uch guruhga ajratadi.

Fikrimizcha, yuqoridagi ikki tadqiqotda ijtimoiy sohani moliyalashtirishda ijtimoiy himoyani shakllantirishda ikki kategoriyaga yagona yondashuvni ko'ramiz. Ular: ish haqi va unga nisbatan soliq siyosatining qo'llanilishi. Demak ijtimoiy himoya tizimini tashkil etishda yagona yondashuvlar mavjud bo'lsada, jamiyatda daromadlarni taqsimlashdagi yondashuvda esa farqlar mavjud.

N.Xasanxonova aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan uchta omilni ajratib ko'rsatadi, ular: ta'lim, fan-texnika taraqqiyoti va sog'liqni saqlash [6].

Bizningcha, ijtimoiy sohani moliyalashtirishning dolzarblik kasb etishi olim va mutaxassislarining sohaning turli jihatlarini inobatga olgan holda yondashuvlarida o'z aksini topmoqda. Jumladan, uning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni yoki aholi daromadlarining tabaqalashuvini oldini olish kabi xususiyatlari shular sirasiga kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy ijtimoiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- ✓ insonlarning moddiy va ma'naviy farovonligiga erishish;
- ✓ kishilarning mehnat faoliyati jarayonida kamolotga etishish;
- ✓ ijodkor inson bo'lishiga erishish;
- ✓ kishilarning madaniy-maishiy hayot sharoitlarini yaxshilash.

Bu vazifalarni hal qilishda ijtimoiy sohani rivojlantirish va uning infratuzilmasini takomillashtirish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy soha – insonlarning turmush darajasini, aholi farovonligini, fuqarolarning iste'molini aniqlovchi hamda bevosita bir-biriga bog'liq korxonalar, tashkilotlar va muassasalar majmuidir.

O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlarni o'rnatish va rivojlantirishni uchta bosqichga bo'lib o'rgansak bo'ladi.

Birinchi bosqich: 1924-yildan 1956-yilgacha. Bu yillarda pensiya va nafaqa tushunchalari paydo bo'ldi va hayotga tadbiiq etildi. Lekin bu davrda yagona pensiya tizimi yo'q edi va pensiyalar bilan ta'minlash tarmoqlar prinsipi asosida olib borilar edi.

Ijtimoiy himoya tushunchasini ochib berishda ikki tomonlama ma'noni ifoda etuvchi fikrlarni ham ko'rishimiz mumkin. Agar kengroq talqin qiladigan bo'lsak, har bir mehnatga layoqatli fuqaro o'z haqida o'zi qayg'urishi, munosib yashash uchun mustaqil mehnat qilishi kerak. Har bir fuqaro avvalo daromad keltiradigan ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishi, tirikchilik qilishi uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklarni egallashi, o'z ustida tinmay mehnat qilishi hamda jamiyat bergan huquqiy imkoniyatlardan foydalanilgan holda o'zini aktiv faoliyatini takomillashtirib borishi zarur. Jamiyatni boshqarayotgan davlat tomonidan berilgan imkoniyatlardan fuqarolar o'zlarini ijtimoiy ahvollarini yaxshilashda foydalanishlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, fermer xo'jaligi hamda berilayotgan yer uchastkalarini olib, undan

daromad olishga harakat qilishlari lozim. Shu bilan birga davlatning kadrlarni qayta tayyorlash bo'yicha berayotgan moddiy yordamidan foydalanish, korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan rekonstruktsiya ishlari, yangi texnologiyani o'zlashtirishda mutaxassislarning ishtirok etishi, zamonaviy texnikani o'rganish bo'yicha malakasini oshirish uchun berilayotgan imkoniyatlardan foydalanish orqali fuqarolar yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritib, yuqori daromad oladigan ishga joylashishlari hamda o'z hayotlarini farovon bo'lib borishini ta'minlashlari lozim.

Ikkinchi bosqich: 1956-yildan 1990-yilgacha. 1956-yildan davlat tomonidan pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Bu qonun bo'yicha pensiyalar bilan ta'minlash aholining doirasi ancha kengaydi. Masalan, ushbu yildan boshlab kolxozchilar pensiya oladigan bo'ldilar. 1965-yildan boshlab aholining hamma tabaqalari pensiya oladigan bo'ldilar. Undan tashqari bu bosqichda har xil nafaqa va imtiyozlar to'lana boshladi.

Uchinchi bosqich: 1990-yildan hozirgi davrgacha yaratilgan aholini himoya qilish mehanizmi takomillashtirildi. 1990-yildan iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish bilan fuqarolarni pensiya ta'minoti to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu bosqichda yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Pensiya fondi, ijtimoiy pensiyalar, daromadlarni indeksatsiyalash.

Xalqaro amaliyotda aholiga salomatligi va uni mustahkamlashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy choralar samaradorligini ham bola tug'ilgan paytda kutilayotgan hayot davomiyligiga ko'ra baholash qabul qilingan bo'lib, mazkur ko'rsatkich ma'lum darajada sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarini rivojlanganlik holatini aks ettiradi.

Shunday ekan, ijtimoiy sohani moliyalashtirish samaradorligini oshirish orqali birinchi navbatda inson omilining yuzaga kelishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga birlamchi ta'sir etuvchi bir butun majmua sifatida aks etadi.

Ijtimoiy himoya o'z doirasiga ko'ra murakkab aloqadorlikni o'z ichiga oladi va buni davlatni fuqarolarga olib borayotgan xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoyani oddiy vazifasini aholini alohida guruhlariga ijtimoiy tovon to'lash natijasida ular daromadlarini saqlab qolish, ya'ni nafaol shaklini namoyon qilmoqda. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy holat esa ijtimoiy himoya rolining o'zgarishini taqozo etadi. Buning uchun birinchi navbatda barcha ijtimoiy siyosat kontseptsiyasini qayta qurish, uni milliy daromadini pasaytiradigan omildan muvozanatlashtiruvchi va o'sishini ta'minlovchi omilga aylantirishi lozim.

Quyidagilar ijtimoiy himoyaning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi [7]:

✓ jamiyatda adolatli aloqalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini yaratish;

✓ farovon yashash tarzini oshirish;

✓ o'ziga xos daromadlar siyosati olib borish.

Aholining kam ta'minlangan qismi deyilganda eng kam zarur bo'lgan iste'mol

andozalariga ega bo'lmagan jamiyat a'zolari tushuniladi [8].

Kam ta'minlanganlik daromadlarning kundalik hayot kechirishning eng kam byudjetidan ortishi, biroq eng kam iste'mol byudjetiga yetmasligi holatini ifodalaydi.

Ba'zi toifadagi ishchilarning nisbatan past darajada ish haqi olishi, oila qaramog'ida kam daromadli yoki umuman daromad olmaydigan qismining mavjudligi aholi alohida olingan guruhlarining kam ta'minlanganligini keltirib chiqaradi.

Kam ta'minlangan aholi mavjudligi – o'tkir ijtimoiy muammo bo'lib, hattoki boy mamlakatlarda ham bu muammo mavjud. Bu esa doimo davlat tarafidan mazkur muammoga e'tibor berilishini va jamiyat tomonidan kechga qoldirmas chora-tadbirlar ko'rilishini talab qiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishish barcha tsivilizatsiyalashgan davlat oldida asosiy vazifa sifatida aholining ijtimoiy guruhlarini, asosan esa past darajadagi moddiy ta'minlanganlarni himoyalashni o'z oldiga qo'yadi.

Bunday aholi guruhlarining mavjudligi, bir tomondan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'lsa, boshqa tarafdin esa bu masalaga doimo e'tibor berish va faol g'amxo'rlik qilish insonparvar jamiyat ekanligidan darak beradi.

Kam ta'minlanganlik aholini ma'lum guruhini ijtimoiy muammolarini himoya qilishda o'zi alohida bo'lib, faqat yuqori darajadagi iqtisodiy salohiyatga erishganda qaralishi mumkin. Agarda aholini ko'p qismi kambag'al hayot kechirsa, u holda kam ta'minlanganlik faqatgina ijtimoiy emas, balki umumiy iqtisodiy tavsifga ega, chunki bu muammolarni yechish uchun umumiy iqtisodiy o'sishga erishish yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulotni yuqori darajasiga erishish zarur bo'ladi.

Turli mamlakatlar uchun hayot kechirishning eng kam darajasi farqlanib, erishilgan daromad darajasi va iqtisodiyot tarkibiga bog'liq bo'lgani sababli, kambag'allik har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Eng kam ish haqi doimiy siyosiy tortishuvlar manbai bo'lib qolmoqda. Eng kam ish haqini oshirish tarafdorlari kam ta'minlangan oilalarni daromadlarini oshiruvchi vosita deb qaraydilar.

Eng kam ish haqi darajasini oshirishga qarshi chiquvchilar esa, bu kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlashning eng maqbul yo'li emas, deb hisoblaydilar.


Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) ish haqi darajasining oshishi ishsizlikka olib keladi;
- 2) ko'p hollarda ijtimoiy yordam aynan muhtoj kishilarga borib yetmaydi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, kam ta'minlangan aholi uchun minimal ish haqi to'g'risida qabul qilingan qonun va uni narxlar indeksi oshishiga ko'ra indeksatsiya qilinishi qalqon sifatida qaralishi mumkin. Misol uchun Italiyada indeksatsiya iste'mol narxlari indeksi 1 foizga oshganda, Daniyada uch foizga, Belgiyada ikki foizga, Lyuksemburgda ikki yarim foizga oshganida indeksatsiya qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda esa indeksatsiya barcha aholiga nisbatan emas, balki yollanma ishchilarning bir qismini o'z ichiga oladi. Ular jumlasiga AQSh, Kanada, Fransiya, Shveytsariya kabi mamlakatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham narxlar indeksi oshganda indeksatsiya amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida eng kam ish haqini davlat tomonidan tartibga solinishini ta'qozo etadi. Lekin rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda narxlar indeksi necha foizga oshganida indeksatsiya amalga oshishi aniq belgilanmagan.

Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishini quyidagi chizma orqali ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishi

Bozor iqtisodiyotida aholi boqimandachiligiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, shuningdek davlat mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish muhimdir. Davlat mablag'lari chegaralanganligini hisobga olganimizda, bizning fikrimizcha ijtimoiy yordamni faol turlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishda aholini ijtimoiy himoyalashning manzilliligini kuchaytirish ahamiyat kasb etadi.

1991-yildan buyon ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlash davlat byudjet xarajatlarida 50 foizdan kam bo'lmagan tendensiyani o'zida aks ettirmoqda. Keyingi yillarda iqtisodiyotning erkinlashuvining jadallashishi orqali mazkur sohada ham bir qator o'zgarishlar yuzaga kelishini taqozo qildi.

Fikrimizcha, amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlarning shakllanishiga shart-sharoitlar yaratildi. Bu borada, ijtimoiy sohani moliyalashtirishning yana bir jihatlaridan ijtimoiy tabaqalanish borasidagi tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy sohada inson omiliga katta e'tibor qaratish muhimligi bir qancha iqtisodchilarning qarashlarida o'z aksini topdi. Demak, aholi turmush darajasining mezoni bo'lib, ular yashashlari uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar bilan ta'minlanganlik darajasi tushuniladi.

XULOSA

Ijtimoiy sohani moliyalashtirish asosida iqtisodiy o'sishning muhim parametrlarini ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilishi tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda. Shu boisdan, ijtimoiy sohani moliyalashtirishda nafaqat davlat byudjeti mablag'i balki, byudjetdan tashqari manbalar mablag'laridan keng foydalangan holda moliyaviy ta'minlash doimiy zarurat uyg'otadi.

Iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotining barcha jabhalarini, shu jumladan, aholiga xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarni ham qamrab oladi. Ushbu soha tarmoqlarining asosini ijtimoiy-madaniy sohalar tashkil etadi.

Barcha islohotlarning-iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi - insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iboratdir. Ushbu vazifaning ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy-madaniy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ржаницына А.С. Даходы: уровень, дифференциация, гарантии. – М.: “Профиздат”, 1991.
2. Одегов Ю.Т., Руденко Г.П., Митрофанов Н.Т. Рынок труда и социальное партнерство. – М.: “Хронограф”, 1998.
3. Raximova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy imoya tadbirlari qo'llanishi // “O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” – T.: 2000, №3.
4. Vahobov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2002.
5. Majidov N., Rayханov U. Ijtimoiy sug'urta – inson kapitalini takror ishlab chiqarishga kiritilayotgan investitsiyalar shakli sifatida // “Moliyachi ma'lumotnomasi” jurnali. – T.: 2016. - №11.
6. Xasanxonova N. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga iqtisodiy tafakkurning ta'siri // “Iqtisodiyot va ta'lim” jurnali. – T.: 2014. - №2.
7. Базылева Н.И. Экономическая теория. – Минск: “БГЭУ”, 1998.
8. Рофе А.Н., Жуков А.Л. Теоретические основы экономики и социологии труда. – М.: “МИК”, 1999.